



«Hamkorbank» ATB
Kuzatuv Kengashining
27 iyun 2025-yildagi
8-7-sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN

«Hamkorbank» ATB
Kuzatuv Kengashining raisi

_____ I.I. Ibragimov

**Chet el kapitali ishtirokidagi «Hamkorbank» ATBning
DIVIDEND SIYOSATIGA kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar**

1. Dividend siyosatining 9-bandi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

«Dividend to'lash, dividend miqdori, aksiyalarning har bir turi bo'yicha to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasiga va moliyaviy hisobotga asosan, ularning to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividend miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan oshmasligi kerak. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning ayrim turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik, shuningdek dividend miqdori jamiyat ustavida belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha qisman dividend to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlarni to'lashning boshlanish va tugash sanalari ko'rsatilishi kerak».

2. 9¹ band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori qat'iy belgilangan pul miqdorida yoki bank ustavida ko'rsatilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidan foizlarda belgilanadi».

3. Siyosatning 35-bandi chiqarib tashlansin.

Huquqshunos:

A.Djurayev

**Investitsion banking
boshqarmasi boshlig'i**

Sh.Olimjanov

**Komplayns nazorat departamenti
mutaxasisi (Metadalogiya):**

Z. Shomirzayeva

Mazkur hujjat loyihasi Bankning Elektron hujjat aylanishi tizimi orqali 14.04.2025y ichki me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish "Ishchi guruxi" blan kelishilgan

